

KO'P MA'NOLILIK HODISASINING PSIXOLINGVISTIK ASPEKTD
O'RGANILISHI

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Mamirovaxayriniso06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17173469>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tabiiy tilning asosiy qismini tashkil etuvchi ko'p ma'no so'zlarning nazariy asoslari, psixolingvistlar tomonidan bolalarning ko'p ma'nodlilikni o'zlashtirishi haqidagi farazlari va ilmiy talqinlari keltirildi. Ko'p ma'nodlilikning o'zlashtirish darajalariga oid guruhlanish va omonimiya bilan bog'liqlik hamda farqli tomonlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ko'p ma'nodlilik, psixolingvistika, literalizm, spetsifikatsiya, sezgi (ma'no), metonimiya, metafora.

Abstract. This thesis presents the theoretical foundations of polysemous words, which constitute a fundamental part of natural language, along with hypotheses and scientific interpretations by psycholinguists regarding children's acquisition of polysemy. The thesis also highlights the groupings related to levels of polysemy acquisition, as well as the connections and distinctions between polysemy and homonymy.

Keywords: polysemy, psycholinguistics, literalism, specification, sense (meaning), metonymy, metaphor.

Falsafa, tilshunoslik va psixologiya sohalarida polisemiya mavzusida ko'p yozilgan. Polisemiya turli nuqtayi nazarlardan o'rganilgan, masalan, kompyuter tilshunosligi [Pustejevskiy, 1995], pragmatika [Falkum, 2011], psixologiya [Evans, 2015], nazariy semantika [Jakendoff, 2011] va leksikografiya [Kilgariff, 1992]. Uzoq yillar davomida dunyo tilshunosligida boshqa til birliklari kabi polisemiya hodisasi ham jarayon emas, mahsulot sifatida yoritilgan.

Bugungi kunda ko'p ma'nodlilik hodisasiga qiziqish ortib bormoqda, ayniqsa psixolingvistika sohasida ko'p ma'noli so'z ma'nolarining omonlikka aylanib borishi, xotirada saqlanishi va nutqda ifodalanishidagi farqlarga e'tibor qaratiladi. Psixolingvist Frisson ko'p ma'noli so'z ma'nolari orasidagi bog'liqlikni "*sezgilar*" deb ataydi [Frisson, 2019].

Yuqorida aytib o'tilganidek, turli xil qarashlarni guruhlash mumkin. Ko'p ma'nodlilikka tegishli ma'no sezgilari qanday ifodalanishi va saqlanishi haqida uchta asosiy nazariya:

a. *literalizm*: har bir ko'p ma'noli atama to'g'ridan-to'g'ri, denotatsion, ma'noga ega. Qolgan sezgilar lingvistik qoidalar, majburlash yoki pragmatik xulosalar asosida hosil bo'ladi;

b. *kam ma'no (asosiy ma'no) hisobi*: ko'p ma'nodlilik atamasining ma'nosi uning turli xil ma'nolarini o'z ichiga olgan va ularga kirish imkonini beradigan kam aniqlangan, mavhum va umumlashtirilgan ifodadir.

c. *haddan tashqari spetsifikatsiya (boy) hisob*: ko'p ma'nodlilik atamasining ma'nosi uning barcha turli xil ma'no sezgilarini o'z ichiga oladi, ular bitta vakillikda saqlanadi.

Sezgilar – so'zning umumiy ma'nosini tanlab olish.

Zamonaviy psixolingvistika kamdan-kam spetsifikatsiya va haddan tashqari spetsifikatsiya yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotchilarda ko'p ma'nodlilikni o'zlashtirishda ma'nolarning birini boshqasidan ajratib turadigan narsa so'zning turli xil

ma'nolariga kirishi to'g'ridan-to'g'ri yoki "umumiy yadro" deb nomlangan oraliq stantsiya orqali o'tadimi degan savol tug'iladi [Klepousniotou, 2008].

Masalan, fe'l so'z turkumiga oid birlilikning turli xil ma'nolariga tegishli umumiy o'zagi *"bir turdagi bog'lanishni ko'rsatadigan, asosdan uzilish jarayonini boshdan kechiradigan holatning o'zgarishi bo'lishi mumkin"* [Spale, 2015]. Bunga ko'ra, qachonki til o'zlashtiruvchi matnda *"kesilgan"* so'zni topsa, u o'sha umumiy asosiy ifodani faollashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan, polisemiya berilgan xulosa omonimiyani birlilikdan farq qiladi, bunda bolalar ongi omonim so'zga duch kelganda alohida aniq bir ma'noga kirishlari kerak, dominant ma'noga nisbatan aniq tarfakshlik mavjud va qarama-qarshi ma'nolar bir-biri bilan raqobatlasha oladi, shuning uchun tanlanmagan ma'no tez parchalanadi. Psixolingvist Frisson leksik polisemiya ma'nolar yig'masida biz eng tez-tez uchraydigan dominant ma'noga nisbatan kuchli tarfakshlikni ko'rinmasligini aniqlaydi. Darhaqiqat, qaysi ma'no dominant bo'lishidan qat'i nazar, semalar bir-biriga bog'langan munosabatni ta'minlaydi va ularning umumiy faollashuvi kamida 750 ms davom etadi [MacGregor, 2015].

Psixolingvistik tadqiqotlarda polisemiyaning bir turi orqali test o'tkazilib, butun hodisa uchun "qaror" chiqarish holatlari ham ko'p uchraydi. Tadqiqotchi Pustejovskiy bu tashvishlarni hisobga olgan holda, polisemiyaning uchta keng turini ajratib ko'rsatadi: o'ziga xos yoki mantiqiy polisemiya, oddiy polisemiya va metaforaga asoslangan polisemiya.

Psixolingvist Frisson (2015) "book" (kitob) polisemiya ma'nolarini ingliz o'zlashtiruvchilari qanday qayta ishlashini tadqiq qildi. Aspektlarni mos ravishda (3a, b) va (4a, b) da bo'lgani kabi farqlash mumkin, deydi. Lekin a (5) *"Bu katta kitob juda qiziqarli"*. Nuqta obyektlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular birgalikda predikatsiya va anaforik bog'lanish testlaridan o'tadilar.

Pustejovskiy (1995) o'ziga xos polisemiyaning hisobga olish uchun maxsus murakkab turdagi nuqta-obyektning mavjudligini taxmin qiladi. Shunday qilib, *kitob* info yoki physobj tipidagi emas, balki info•physobj tipida ekanligini aniqlaydi. Masalan, *kitob*, *qo'lyozma*, *xabarnoma*, *jurnal* va boshqalar. Natijalar hech bo'lmaganda barcha turdagi o'ziga xos polisemiyalarga kengaytirilishi mumkin. Tadqiqot ikkita tajribadan iborat: sezgirlik vazifasi va ko'z harakati tajribasi.

Neytral sharoitda subyektlar ko'p ma'noli otning dominant ma'nosiga qaraganda bo'ysinuvchisiga nisbatan kamroq qiyinchilikka duch kelishadi. Takrorlash sharoitida o'zlashtiruvchilar bir ma'noli so'zlarga so'zlarga qaraganda ko'p ma'noli otni o'qishga ko'proq vaqt sarflaydilar, ammo ma'lum bir ma'noni tanlash vaqti sezgi chastotasiga ta'sir qilmaydi. O'tish sharoitida ishlov berish neytral kontekstga qaraganda qiyinroq edi va bo'ysinuvchi ma'nodan dominant ma'noga o'tish aksincha ko'proq vaqt va energiya sarflanishini keltirib chiqaradi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, "book" (kitob) polisemiya omonimlardan va tobe semalardan bir-biriga bog'liq bo'lgan, shu bilan birga uzoq bo'lgan boshqa turdagi polisemiyalardan juda farq qiladi [Klein va Merfi, 2001, Foraker va Merfi, 2012]. Ushbu tadqiqot xulosasiga ko'ra, metonimiya hodisasidan yuzaga keladigan ko'p ma'nolilik psixolingvistik tajribadandan ko'ra, lingvistik tahlil obyekti bo'lishga mos.

Klepousniotou va boshqalar polisemiyaning o'zlashtirilishida chostota effekti mavjud emasligiga ishonishadi. Ularning fikriga ko'ra izchil kontekstlarda namoyon bo'ladi. Polisemik so'zlarning ma'nolari bir nutqtadan o'sib chiqmaydi, balki bir-biriga yaqin nuqtalarda

joylashadi, deb hisoblashadi. Masalan, Who is carrying the bottle? (shishani kim olib yuradi?) va I drank the whole bottle (men butun shishani ichdim) kabi.

Metonimiya asosiy polisemiya hosil qiluvchi mexanizmlardan biridir. Boshqa asosiy mexanizm – bu metafora. Metonimiyaga asoslangan (o'ziga xos yoki oddiy) polisemiya, asosan, to'g'ri yoki umumiy otlarga ta'sir qilsa, metafora asosidagi polisemiya barcha turdagi so'zlarga: ot va yuklamalardan tortib sifat va fe'llarga ta'sir qiladi. Metaforaga asoslangan polisemiya odatda *tartibsiz* va *o'ziga xosdir*.

Metonimiyaga asoslangan polisemiyalar hisoblash va rasmiy semantiklarning asosiy e'tiborini tortgan bo'lsa-da, metaforaga asoslangan polisemiya Lakoff (1987) va Brugmanning (1988) polisemiyaga oid ishlaridan boshlab, kognitiv lingvistika an'anasi doirasidagi ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'ldi.

Ko'pgina kognitiv tilshunolar ta'kidlagan gipoteza shundan iboratki, metaforaga asoslangan polisemiyalar so'zning prototipik, odatda gavdalangan ma'nosidan kelib chiqadigan ma'no zanjirlari nuqtayi nazaridan tuziladi va turli yo'llar bilan kengaytiriladi.

Psixolingvist MacGregorning 2015-yilgi tadqiqotida til o'zlashtirishda oddiy va metoforik ko'p ma'nolilikning nutqda faollashuvini "leksik qaror" usuli orqali farqlashga urinildi. Ushbu tadqiqotda "*og'iz*" polisemiyasi asosiy misol qilib olindi va polisemiyaga bir xil qo'shimcha qo'shilib o'zlashtirilishi aniqlandi: *odamning og'zida-daryoning og'zida-g'or og'zida* kabi. Leksik qarorga ko'ra javob berish tezligi bir ma'no uchun kerak bo'lgan vaqt bo'yicha oddiy va metoforik polisemiyalar o'rtasida minimal sekundlar farqi bilan seziladi. Ammo omonimiya o'zlashtirilishi bilan taqqoslaganda oddiy va metoforik polisemiyalar o'zlashtirilishi bir xildek ko'rinadi. Xususan, omonimlar bilan o'tkazilgan tajribalarda leksik qarordan so'ng 750 msda so'zning ortiqcha ma'nolari faollashuvi so'ngan bo'lsa, ko'p ma'noli so'zning qo'shimcha ma'nolari ongda hali ham faol ekanligi aniqlangan [MacGregor, 2015; 138].

Metaforaga asoslangan polisemiya literalistik gipotezaga intuitiv tortishish ham mavjud. Zero, metafora so'zma-so'z ma'no asosida tuziladi. Biroq, majoziy ma'nolar tuzilib, *shartlashtirilgandan so'ng*, biz ularni ushbu to'g'ridan-to'g'ri ma'nolar asosida hisoblashimiz kerakmi, degan savol tug'iladi. Psixolingvistik jihatdan metaforaga asoslangan polisemiya metonimiyaga asoslangan polisemiya kabi chuqur o'rganilmagan. Shunisi e'tiborga loyiqki, metonimiya cheklangan miqdordagi hislarni hosil qilsa, metafora ularning yuzlab semalarini yaratishga qodir [Brugman, 1988].

Psixolingvistlar fe'lli polisemiyalarning o'zlashtirilish jarayoniga alohida e'tibor qaratib, fe'l so'z turkumiga oid birgina leksema hosila semalar shaklda o'zlashtirilmasligini, buday polisemiyalar VP holatda, boshqa so'z bilan birikikma holatida birgalikda o'zlashtiriladi, degan fikrni ilgari surishadi. Masalan, "tushmoq" fe'li yuqorida pastga tushish yadroviy ma'nosi bo'lsa, "kayfiyatning tushishi", "kursning tushishi", "haroratning tushishi" kabilarda ko'p ma'nolilik bilan birgalikda keladigan so'z birgalikda o'zlashtiriladi.

Hatto juda yosh bolalar ham eshitadigan ko'p ma'noli so'z umumiy ot bo'lsa, umumlashtirishga va xulosa chiqarishga moyillik kuchli bo'ladi, lekin yangi o'zlashtirilayotgan so'zlar sifatlar yoki biror shaklning tavsiflari bo'lsa, miya ancha ehtiyotkor bo'ladi [Fennell & Waxman, 2010]. Bu esasenistik pozitsiya bilan bog'liqq, ya'ni umumiy ma'no ifodalovchi so'zlar, odatda, ko'proq ma'lumotga kirish imkonini beradi va boshqa atamalarga qaraganda boyroq tushunchaga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, oddiy ko'p ma'no boy ma'nolarni talab qilsa, metaforaga asoslangan polisemiya kam tavsiflash yondashuviga ega. Ma'limotlarga ko'ra, shu davrgacha ko'p ma'nolilikning turlararo o'zlashtirish imkoniyatini aniq sanab o'tilgan, ammo chegaralangan birorta tadqiqot qilinmagan. Psixolingvistik tekshiruvlar natijasiga kora, ko'chima ma'nolarga ega bo'lgan ko'p ma'nolilik inson ongida bir vaqtda barchasi faollashadi, degan qarashlar ham mavjud. Metoforik polisemiya faollashuvida yo'naltiruvchi xususiyat bo'ladi. So'nggi tadqiqotlarda ko'p ma'nolilik hodisasi psixolingvistikada tadqiqotchilar e'tiborni jalb qila boshladi, ammo biz hozirgacha bo'lgan natijalar muhokama va tushuntirishlarni, shuningdek, nazariy modellar bilan yaxshiroq integratsiyani talab qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Brugman, C. The Story of Over: Polysemy, Semantics and the Structure of the Lexicon. – New York : Garland Press, 1988. – 350 p.
2. Evans, V. The Crucible of Language: How Language and Mind Create Meaning. – Cambridge : Cambridge University Press, 2015. – 276 p.
3. Falkum, I. L. The semantics and pragmatics of polysemy: A relevance-theoretic account : PhD thesis. – London : University College London, 2011. – 312 p.
4. Fennell, C.; Waxman, S. What paradoxical referential cues can tell us about the acquisition of words: Evidence from 24-month-olds // Language Learning and Development. – 2010. – Vol. 6, № 4. – P. 283–309.
5. Frisson, S. About bound and scary books: The processing of book polysemies // Lingua. – 2019. – Vol. 201. – P. 24–38.
6. Jackendoff, R. Meaning and the lexicon: The parallel architecture 1975–2010. – Oxford : Oxford University Press, 2011. – 524 p.
7. Kilgariff, A. Polysemy // Word Journal of the International Linguistic Association. – 1992. – Vol. 45, № 3. – P. 320–339.
8. Klepousniotou, E. The processing of lexical ambiguity: Homonymy and polysemy in the mental lexicon // Brain and Language. – 2008. – Vol. 105, № 1. – P. 16–25.
9. MacGregor, L. J.; Bouwsema, J.; Klepousniotou, E. Sustained meaning activation for polysemous but not homonymous words: Evidence from EEG // Neuropsychologia. – 2015. – Vol. 68. – P. 126–138.
10. Pustejovsky, J. The Generative Lexicon. – Cambridge, MA : MIT Press, 1995. – 318 p.
11. Spalek, K.; Thompson, C. K. Semantic ambiguity processing in aphasia: Evidence from auditory lexical decision // Brain and Language. – 2015. – Vol. 142. – P. 27–37.